


TANQIDIY FIKRLASH

IDC



YOSH
IQTIDOR

EGALARI
UCHUN

PREZIDENT MAKTABLARIGA TAYYORGARLIK
KO'RAYOTGANLAR UCHUN

YANGI
NASHR

TANQIDIY FIKRLASH YOSH IQTIDOR EGALARI UCHUN



IDC

Intelligence Development Center



Mundarija

1. Sodda mantiqiy mulohaza	4
2. Fikrlar asosida xulosa chiqarish	34
3. Asoslovchi fikr	45
4. Mantiqiy xatolik	74
5. Kuchaytiruvchi va zaiflashtiruvchi fikr	102
6. To'plamlar tuzib yechiladigan masalalar.	120
7. Fikrlar tahlili	137
8. To'g'ri va noto'g'ri fikrni aniqlash	148
9. Shartli hukmlardan to'g'ri xulosani aniqlash	190
10. Tartibga doir masalalar yechish	200
11. Qutblarga doir masalalar yechish	218
12. To'plamlar orasidagi moslikni aniqlash(Syujetli masalalar)	226
13. Rost yoki yolg'on mulohaza	238
14. Aralash bo'lim	249
Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati	319

Quyidagi QR kod orqali kitoblarimiz haqidagi eng birinchi va eng ishonchli ma'lumotlarni telegram kanalimizdan topishingiz mumkin.



Kitoblarimizga buyurtma berish uchun quyidagilarga murojaat qiling:



(99) 968 44 00



@IDC_books

1. SODDA MANTIQUIY MULOHAZA

(*)Dunyodagi eng baland bino bo'lgan Burj Xalifa minorasining balandligi 828 metr.

Qaysi mulohaza mantiqan to'g'ri?

A Agar parashutchi 828 metr balandlikdan sakragan bo'lsa, demak u Burj Xalifa minorasidan sakragan.

B Burj Xalifa balandligi bilan mashhur, ammo u eng baland bino emas

C Bino qancha baland bo'lsa, u shuncha mashhur bo'ladi

D Agar binoning balandligi 828 metr bo'lsa, demak u dunyodagi eng baland binolardan biri

9

(*)Avstraliyada aholi so'roviga ko'ra, faqat 10 % odamlar milliy madhiyaning so'zlarini to'liq yod olganlar.

Qaysi mulohaza mantiqan to'g'ri?

A Avstraliyada odamlarning 90 % madhiyani to'liq bilmaydi

B Avstraliya madhiyasi hamma uchun mushkul

C Avstraliyada savodsizlar ko'p

D 10 % amerikaliklar ham madhiyasini biladi

10

(*)"1881-yilda Amerikalik stomatolog Alfred P. S. elektr stulni ixtiro qilgan."

Qaysi mulohaza noto'g'ri?

A Agar kimdir elektr stulni ixtiro qilgan bo'lsa, demak u stomatologdir.

B Har bir stomatolog elektr stul ixtiro qilgan bo'lishi shart.

C Agar kimdir stomatolog bo'lmasa, demak u elektr stul ixtiro qilmagan.

D Agar kimdir elektr stulni ixtiro qilgan bo'lsa, demak u sog'liq saqlash sohasida ishlaydi.

11

(*)Eng baland tog'lar Xitoyda joylashgan. Yevropada juda baland tog'lar yo'q.

Yuqoridagi ma'lumotdan foydalanib, qaysi mulohaza to'g'ri?

A Agar tog'lar juda baland bo'lsa, demak u Yevropada emas.

B Xitoydagi ba'zi tog'larga chiqish imkonsiz.

C Xitoy tog'larining balandligi uning tabiatiga bog'liq.

D Yevropada tog'lar yo'q.

12

1. SODDA MANTIQUIY MULOHAZA

(*)Oddiy insonning yuragi zo'riqishga uchramaganida daqiqasiga kamida 70 marta uradi.

Shundan qanday xulosa chiqarish mumkin?

- A Oddiy inson yuragi faqat jismoniy zo'riqishda tezroq uradi.
- B Oddiy inson yuragi zo'riqishda daqiqasiga 70 martadan kam uradi.
- C Oddiy inson yuragi zo'riqmaganida daqiqasiga 60 martadan ko'p uradi.
- D Oddiy inson yuragi zo'riqmaganida daqiqasiga 80 tadan kam uradi.
- E Sportchilarning yuragi zo'riqishga uchramaganida daqiqasiga 70 tadan kam uradi

49

(*)Dunyo bo'yicha eng ko'p temir yo'llar AQSH hududida joylashgan. Bu mamlakatda yuk va yo'lovchi tashishda poezdlar muhim o'rin tutadi.

Ushbu ma'lumotga asoslanib qaysi xulosa to'g'ri?

- A Eng ko'p temir yo'llar joylashgan davlat Yevropada emas.
- B Dunyodagi barcha temir yo'llar AQSH dagi temir yo'llar bilan bog'langan
- C Temir yo'l yuk va yo'lovchi tashishda xavfsiz
- D Har bir amerikalik poezdda sayohat qilgan

50

(*)Uzunligi bo'yicha dunyoda 3-o'rinda turuvchi Makkada joylashgan Abraj al-Bayt binosi uzunligi 601 metr bo'lib, binodagi qavatlar soni 120 ta.

Yuqoridagi ma'lumotlarga asoslanib, quyidagilardan qaysi birini xulosa qilish mumkin?

- A Faqatgina 2 ta binoning qavatlar soni Abraj al-Bayt qavatlar sonidan ko'p.
- B Dunyoda Abraj al-Bayt binosidan uzun bo'lgan ikkita bino bor.
- C Abraj al-Bayt Makkada uzunligi bo'yicha 3-o'rinda turadi.
- D Barcha javoblar to'g'ri

51

(*)Harbiy bilim yurtiga o'qishga kirish uchun imtihon topshiruvchining bo'yi 1m 70 cm dan kam bo'lmasligi kerak.

Agar yuqoridagi fikr rost bo'lsa, quyidagilardan qaysi biri to'g'ri?

- A Nursaidning bo'yi 1 m 80 cm. Demak, u aniq harbiy bilim yurtiga o'qishga kiradi.
- B Ramazonning bo'yi 1 m 60 cm bo'lgani uchun harbiy bilim yurtiga kira olmaydi.
- C Bo'yi 1m 70 cm dan yuqori bo'lgan hamma odam harbiy bilim yurtiga o'qishga kiradi.
- D Davron harbiy bilim yurtiga o'qishga kira olmadi. Demak, uning bo'yi 1 m 70 cmdan pastroq bo'lgan

52

(*) Mashxur bir qo'shiqchi mahalliy maktabga tashrif buyurib, direktorga quyidagi maslahatni berdi: "Maktab konsertlari va tadbirlarida bolalarga qatnashish imkoniyatini berish ular uchun juda foydali hisoblanadi."

Quyidagi gaplardan qaysi biri qo'shiqchining fikriga qo'shilishimizga asos bo'la oladi?

- A Ko'plab maktablarga qo'shiqchi bir xil maslahat berdi.
- B Bolalar ko'p vaqtlarini sport o'yinlari va boshqa o'yinlarni o'ynashga sarflaydi.
- C Ko'plab odamlar sahna ko'rinishlarini ko'rishni va konsertlarni yoqtiradi.
- D Odamlarni oldida sahnada rol o'ynash bolaning o'ziga bo'lgan ishonchni orttiradi.

41

(*)Psixolog: "O'quvchida biror-bir sohaga iqtidor sezilsa, darrov shu sohaga oid kasblarda o'qish tavsiya etilmaydi. O'quvchi avval o'zida shu sohani sinab ko'rish va unga mos ekanligini bilib olishi kerak."

Psixologning gapini asoslovchi fikrni aniqlang.

- A Psixologlar bola tabiatini yaxshi biladilar.
- B O'quvchi nimaga qiziqsa, o'sha soha bo'yicha ko'proq bilim olishi kerak.
- C Ko'pchilik yoshlarda turli sohaga qiziqish kuzatiladi. Ularning barchasi ham o'quvchilarga mos bo'lmasligi mumkin.
- D O'quvchilar psixologning gaplariga amal qilsalar, o'zlari istagan sohanini topadilar.

42

(*)Shaxmat grossmeysteri: "Shaxmat murakkab o'yin. Ba'zida turnir davomida 2-3 martalab 3-4 soatlik partiyalar bo'ladi. Bunday vaziyatlarda shaxmatchining aqliy salohiyatidan tashqari uning jismoniy holati ham muhim rol o'ynaydi".

Quyida berilgan gaplarning qaysi biri grossmeysterning fikriga qo'shilishingizga asos bo'ladi?

- A Shaxmatda barcha yurishlar, sportdagi kabi shiddatli va qiziqarli kechadi.
- B Shaxmat bilan shug'ullanish bu shaxmat strategiyasini o'rganishdir. Sport bilan shug'ullanish esa uni qo'llay olishdir.
- C Uzoq vaqt davomida faol bo'lish kishining jismoniy holatiga ham bog'liq.
- D Shaxmat aqliy sport turi hisoblanadi.

43

(*) Tolib: “Agar akam och qolsa, ovqat yeyishni boshlaydi. Akam hozir ovqat yeyishni boshladi. Demak, u och.”

Quyidagilardan qaysi biri Tolibning fikrlashidagi xatolikni ko'rsatadi?

- A Tolibning akasi bir necha kundan beri ovqatlanmagan.
- B Tolibning akasi ovqat yeyishi uchun har doim ham och bo'lishi shart emas.
- C Tolibning akasi bir necha kun davomida och qolib yurgan.
- D Tolibning akasi och qolganda har doim ovqat yeydi.

7

(*)Xabar: “Kecha tunda markaziy xiyobon hududidagi oziq-ovqat do'konidan katta miqdorda pul og'irlangan. Sotuvchining aytishi bo'yicha o'g'rining soqoli qora rangda va bo'yi uzun edi.”

Temur: “Men ikki soat oldin ko'chada qop-qora soqolli va bo'yi uzun bir odamni ko'rdim. Bu xabarni oldinroq eshitganimda edi, ko'rgan odamim haqida militsiyani darhol ogohlantirar edim. Chunki, u-o'g'ri.”

Quyidagilardan qaysi biri agar to'g'ri bo'lsa, Temurning fikrlashidagi xatolikni ko'rsatadi?

- A Temur yaqinda ko'rgan odamni nima kiyib olgani haqida aytib o'tmadi.
- B Shaharda yashovchi aksariyat bo'yi uzun odamlar qora soqol o'stirishga qiziqadi.
- C Temur o'g'rilarning odatda kunduzi ko'chada yurmasligini o'ylamadi.
- D O'g'riliklar shaharda ko'pligi sababli, bu holatni e'tiborsiz qoldirishdi.

8

(*) “Yirik shifoxonalarda ishlaydigan shifokorlar har yili ilmiy maqola chop etadi.

Demak, yirik shifoxonada ishlash shifokorlarni ilmiy faol qiladi”.

Quyidagilardan qaysi biri agar to'g'ri bo'lsa, muallif xulosasidagi xatolikni ko'rsatib beradi?

- A Yirik shifoxonalar murakkab kasalliklarni davolaydi, shuning uchun xodimlar tadqiqot qilishga majbur bo'ladi.
- B Odatda oldindan ilmiy faol bo'lgan shifokorlar yirik shifoxonalarga ishga qabul qilinadi.
- C Shifoxonalar ko'pincha shahar markazida joylashgan.
- D Yirik shifoxonalarda tun-u kun ishlovchi dorixonalar mavjud.

9

5. Kuchaytiruvchi va zaiflashtiruvchi fikr

(*) Shifokor: “Har bir oilada birinchi yordam ko‘rsatish uchun dori-darmonlar va ularni ishlatishni biladigan inson bo‘lishi kerak. Bu insonlarning umri uzoq bo‘lishiga olib kelishi mumkin.”

Javoblarda berilgan qaysi fikr shifokorning fikrini ko‘proq kuchaytiradi?

A Maktablardagi ba‘zi fanlar o‘quvchilarga birinchi tibbiy yordam berishni o‘rgatishi kerak.

B Birinchi tibbiy yordam inson kasal bo‘lib qolganda qancha tez qo‘llanilsa, insonning tirik qolish ehtimoli shuncha yuqori bo‘ladi.

C Shifokor ko‘p yillik tajribaga ega.

D Birinchi yordamni ko‘rsatish uchun kerak bo‘ladigan dori darmonlar ancha qimmat shuning uchun ularni avvaldan sotib olib qo‘ygan yaxshi.

1

(*)Tog‘ mintaqasidagi kichik shaharcha suv yetishmovchiligidan aziyat chekmoqda. Mahalliy hokimiyat aholini ko‘proq yomg‘ir suvini yig‘ib, undan foydalanishga undamoqda. Bu orqali suv tanqisligini kamaytirish rejalashtirilgan.

Quyidagilardan qaysi biri bu rejani to‘g‘riligini zaiflashtiradi?

A Shaharchada yomg‘irlar odatda mavsumiy yog‘adi va qisqa davom etadi.

B Aholining ko‘pchiligi suvdan tejab foydalanish haqida o‘ylay boshlagan.

C Qo‘shni shaharlar ham yomg‘ir suvini yig‘ishga o‘tgan.

D Yomg‘ir suvini yig‘ish uchun turli xil arzon idishlar mavjud.

E Ko‘plab aholi allaqachon tom suvini yig‘ish tizimlarini o‘rnatgan.

2

(*)Sardor: “Biz futbol o‘ynayapmiz. Futbol-jamoaviy o‘yin. Qachonki biz jamoa bo‘lib o‘ynar ekanmiz, biz yutishimiz mumkin.”

Quyidagilardan qaysi biri Sardorning fikrini kuchaytiradi?

A Sardor ismidan kelib chiqib, bolalarni ruhlantiruvchi gaplarni aytgan.

B Futbolda bir kishi g‘alaba qozonmaydi. G‘alaba va mag‘lubiyat faqat jamoalarga nasib etadi.

C Futbolda darvozabondan hujumchigacha o‘yinchilar bir-birini so‘zsiz tushunishi va birining xatosini ikkinchisi to‘g‘rilashi yaxshi natija ko‘rsatishga sabab bo‘ladi.

D O‘yin vaqtida 11 kishi bir jamoada harakat qiladi.


3

6. TO'PLAMLAR TUZIB YECHILADIGAN MASALALAR

(*)Badiiy kitoblar o'qiydigan kishilarning ba'zilari ilmiy kitoblar ham o'qiydi, qolgan ba'zilari esa ilmiy kitoblarga qiziqmaydilar.

Quyidagilardan qaysi bir(lar)i yuqoridagi ma'lumotlarga mos diagrammalar bo'la oladi?


Izoh: 1-doira badiiy kitoblarni, 2-doira ilmiy kitoblarni ifodalaydi.



4

(*) 4-A sinfda o'qiydigan bolalar matematika fanidan 3, 4 yoki 5 bahoga o'qiydilar. Quyidagilardan qaysi biri 4-A sinf o'quvchilarining baholari bo'yicha mos diagrammalar bo'la oladi?

Izoh: 1- doira uch bahoga o'qiydiganlarni, 2- doira to'rt bahoga o'qiydiganlarni, 3- doira besh bahoga o'qiydiganlarni ifodalaydi.



5

(**)Sinfimizda ko'zoynak taqadigan barcha bolalar 5 bahoga o'qiydi.

Yuqoridagi ma'lumot asosida quyidagilardan nechtasi har doim noto'g'ri?

1. Hoshim 5 bahoga o'qiydi, lekin u ko'zoynak taqmaydi.
2. Nodir ko'zoynak taqadi, lekin 3 bahoga o'qiydi.
3. Sanjar ko'zoynak taqmaydi va u 2 bahoga o'qiydi.
4. Sardor ko'zoynak taqadi va u 5 bahoga o'qiydi.

A 1 B 2 C 3 D 4

6

(**)Sayyohlar guruhida o'tkazilgan so'rovnomada quyidagilar aniqlandi. Fransiyaga borganlarning barchasi Italiyaga ham borgan. Italiyaga borgan barcha sayyohlar shifokor bo'lib ishlaydi. Shifokorlarning barchasi Londonda bo'lgan.

Yuqorida berilgan ma'lumotlar asosida quyidagi sayyohlar guruhi a'zolari haqidagi fikrlardan qaysi biri noto'g'ri?

- A Agar Aziz Italiyaga borgan bo'lsa, demak u shifokor.
- B Agar Anvar Londonga borgan bo'lsa, demak u shifokor.
- C Agar Sardor Fransiyaga borgan bo'lsa, demak u Londonda ham bo'lgan.
- D Agar Nodir Italiyada bo'lgan bo'lsa, demak Londonda ham bo'lgan.

7

6. TO'PLAMLAR TUZIB YECHILADIGAN MASALALAR

(**) Dalillar:

- Ba'zi sharbatlar shirinliklardir.
- Hech qanday shirinlik ichimlik emas.
- Barcha nonushtalar ichimlik hisoblanadi.

Yuqoridagi dalillardan kelib chiqadigan qaysi xulosalar mantiqan to'g'ri?
Xulosalar:

I. Hech qanday shirinlik nonushta emas.

II. Barcha nonushtalar sharbatlardir.

III. Shirinliklarning barchasi sharbatlardir.

- A Faqat II to'g'ri B Faqat I to'g'ri C Hech biri to'g'ri emas
D Hammasi to'g'ri E Faqat I va III to'g'ri

27

(**)Ba'zi dasturchilar faqat Python dasturlash tilini bilganlarga GitHub'dan foydalana olishlarini aytishadi. Shuningdek, GitHub'dan foydalanadigan har bir dasturchi, albatta, Java haqida tushunchaga ega bo'ladi. Kamol, Diyor, Nilufar va Zohid, Qayumxo'ja dasturlash bo'yicha forumda ishtirok etdilar.

Ushbu axborotlarga asoslanib, quyidagilardan qaysi biri to'g'ri bo'lishi kerak?

- A Qayumxo'ja Java haqida tushunchasi bo'lsa, demak u GitHub ni biladi
B Agar Zohidning Javani haqida tushunchasi bo'lsa, demak u Python ni ham biladi.
C Agar Kamol Python tilini bilsa u holda Javani ham biladi
D Agar Nilufar GitHub'dan foydalana olmasa, demak u Java haqida tushunchaga ega.
E Agar Diyor GitHub'dan foydalansa, demak u Python tilini biladi

28

(**)Ba'zi kutubxonachilar detektiv romanlarni o'qishni yoqtiradi.

Barcha kutubxonachilar mahalliy aholi vakillaridir.

Hech qaysi kutubxonachilar sport jurnalini o'qimaydi.

Bir nechta kutubxonachilar she'riyat to'plamlarini o'qishni yaxshi ko'radi.

Barcha kutubxonachilar ingliz tilidagi kitoblarni o'qiydilar.

Quyidagi xulosalardan qaysi biri to'g'ri emas?

- A Ba'zi mahalliy aholi vakillari she'r kitoblarini o'qishni yoqtiradi.
B Ba'zi mahalliy aholi vakillari sport jurnalini o'qimaydi.
C Ba'zi ingliz tilidagi kitoblarni o'qiydiganlar detektiv romanlarni ham yoqtiradi.
D Barcha ingliz tilidagi kitoblarni o'qiydiganlar detektiv romanlarni yoqtiradi.

29

7. FIKRLAR TAHLILI

7-fikr

Agar rassomning sifatli bo'yoqlari bor bo'lsa, u chiroyli rasm chiza oladi.

7-fikr asosida 23-25- mashqlarni bajaring.

7-fikr va 3-fikrlar orasidagi farqlarni toping.

23

Quyidagi savollarga javob bering.

- I. Chiroyli rasm chiza olish uchun rassomga faqatgina sifatli bo'yoqlar kerak deb xulosa qila olamizmi?
- II. Sifatli bo'yog'i bo'lmagan rassom chiroyli rasm chiza olmaydi deb xulosa qila olamizmi?
- III. Chiroyli rasm chiza oladigan rassomlar chizgan suratlarida sifatli bo'yoq ishlatgan deb xulosa qila olamizmi?
- IV. Chiroyli rasmlar chiza olmagan rassom chizgan suratlarida sifatli bo'yoq ishlatmagan deb xulosa qila olamizmi?

24

Quyidagi mulohazalardan qaysi biri to'g'ri, qaysi biri xato ekanligini aniqlang.

- a) Sardor rassomning sifatli bo'yoqlari bor. Shuning uchun u chiroyli rasm chiza oladi.
- b) Rasulbek rassomning sifatli bo'yoqlari yo'q. Shuning uchun u chiroyli rasm chiza olmaydi.
- c) Maftuna rassom chiroyli rasm chizdi. Demak, u sifatli bo'yoqlar ishlatgan.
- d) Aziza rassom chizgan rasm chiroyli chiqmadi. Demak, u sifatli bo'yoqlar ishlatmagan.
- e) Sifatli bo'yoqlarning narxi qimmat, oddiy bo'yoq bilan ham chiroyli rasm chizish mumkin.
- f) Sarvarning chizgan rasmi Dovudning chizgan rasmidan chiroyliroq ekan. Demak, Sarvar ko'proq sifatli bo'yoqlar ishlatgan.
- g) Rasm chiroyli bo'lishi uchun bo'yoqlarning yorqin ranglaridan foydalanish kerak.
- h) Chiroyli rasm chizish musobaqasida Abror oxirgi o'rinni egalladi. Demak, uning bo'yoqlari sifatsiz.

25

8. TO‘G‘RI VA NOTO‘G‘RI FIKRNI ANIQLASH

(*) Tibbiyot universitetiga o‘qishga kirish uchun kamida: biologiyadan yuqori baho, tibbiyot sohasi bo‘yicha ko‘ngillilik faoliyati tajribasi, va suhbatda ishonchli chiqish talab qilinadi.

Dilorom: “Mening biologiyamdan natijam juda yuqori, va men kasalxonada ko‘ngilli bo‘lib ishlaganman. Suhbatda esa biroz asabiylashdim, lekin men baribir qabul qilinaman.”

Javohir: “Men biologiyadan o‘rtacha baho olganman, lekin ko‘ngilli tajribam bor va suhbatda juda ishonchli gapirdim. Men qabul qilinmasam kerak”.

Kimning fikri to‘g‘ri?

- A Faqat Diloromniki B Faqat Javohirniki
C Ikkalasini ham to‘g‘ri D Ikkalasini ham noto‘g‘ri

113

(*Yaxshi dasturchi bo‘lish uchun insonda tezkor fikrlash va kod yozishda aniqlik bo‘lishi kerak.

Akmal: “Farrux algoritmlar bilan yaxshi ishlaydi, lekin har doim sintaksisda xatoga yo‘l qo‘yadi. U hali yaxshi dasturchi emas.”

Lobar: “Ibrohim kod yozishda aniq va ehtiyotkor, lekin u muammoni qanday yechishni tezda anglay olmaydi. Shunga qaramay, u yaxshi dasturchi bo‘lsa kerak.”

Kimning fikri to‘g‘ri?

- A Faqat Akmalniki B Faqat Lobarniki
C Ikkalasini ham D Ikkalasini ham noto‘g‘ri

114

(*) Agar tajribada havo bosimi kamaytirilsa, suyuqlik qaynash nuqtasi pasayadi.

Malika: Suyuqlikning qaynash nuqtasi pasaysa, demak bosim kamaygan.

Sherzod: Bosim kamaymasa, suyuqlikning qaynash nuqtasi o‘zgarishi mumkin emas.

Agar katakdagi ma‘lumotlar to‘g‘ri bo‘lsa, kimning fikri to‘g‘ri?

- A Faqat Malikaniki B Faqat Sherzodniki
C Ikkalasini ham to‘g‘ri D Ikkalasini ham noto‘g‘ri

115

(*) Ko‘plab tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, deyarli barcha ko‘p kitob o‘qiydigan bolalarda so‘z boyligi keng bo‘ladi.

Kamola: Agar bola ko‘p o‘qisa, uning so‘z boyligi keng bo‘ladi.

Sardor: Agar bolaning so‘z boyligi keng bo‘lmasa, demak u ko‘p kitob o‘qimagan.

Agar katakdagi ma‘lumotlar to‘g‘ri bo‘lsa, kimning fikri to‘g‘ri?

- A Faqat Kamolaniki B Faqat Sardorniki
C Ikkalasini ham to‘g‘ri D Ikkalasini ham noto‘g‘ri

116

9. SHARTLI HUKMLARDAN TO'G'RI XULOSANI ANIQLASH

(**)Kompaniyada yangi dasturiy ta'minot joriy etilishi rejalashtirilmoqda.

Tajriba shuni ko'rsatadiki, agar xodimlar o'quv seminarida qatnashsa, ular tizimdan to'g'ri foydalana oladi.

Agar xodimlar seminarida yetarlicha qatnashmasa, tizimdan to'liq foydalana olishmaydi.

Tizimdan to'g'ri foydalanilmasa, ish unumdorligi pasayadi.

Agar ish unumdorligi yuqori bo'lsa, kompaniya foyda ko'radi. Aks holda, kompaniya hech qanday foyda ko'rmaydi.

Yuqoridagi ma'lumotlarga ko'ra, quyidagilardan qaysi biri to'g'ri bo'lishi mumkin?

- A Xodimlar seminarida qatnashadi, lekin kompaniya foyda ko'rmaydi
- B Xodimlar seminarga qatnashmaydi, lekin ish unumdorligi yuqori bo'ladi
- C Xodimlar tizimdan noto'g'ri foydalansa ham, kompaniya foyda ko'radi
- D Ish unumdorligi past bo'lsa ham kompaniya foyda ko'radi

16

(**)Toshpo'lat o'z bog'ida sabzi eksa, yaxshi hosil olish ehtimoli ortadi.

Yaxshi hosil olsa, u mahalliy dehqonlar yarmarkasida qatnashadi.

Agar yarmarkada qatnashmasa, qishloq xo'jaligi mukofotini olmasligi mumkin.

Quyidagi natijalardan qaysi biri bo'lishi mumkin emas?

- A Toshpo'lat sabzi ekdi, lekin mukofot olmadi.
- B Toshpo'lat sabzi ekmadi, lekin mukofot oldi.
- C Toshpo'lat yaxshi hosil oldi, lekin yarmarkaga chiqmadi.
- D Toshpo'lat yaxshi hosil oldi va mukofotga sazovor bo'ldi.

17

(**)Agar rahbariyat xodimlarga aniq yo'riqnomalarni bersa, ular topshiriqlarni samarali bajara oladi.

Agar xodimlar topshiriqlarni samarali bajarsalar, mijozlar mamnun bo'ladi.

Agar mijozlar mamnun bo'lsa, kompaniya ijobiy reyting oladi.

Quyidagilardan qaysi biri bo'lishi mumkin emas?

- A Yo'riqnoma berilmagan bo'lsa ham, kompaniya ijobiy reyting oldi
- B Xodimlar samarali ishlamasa ham, mijozlar mamnun bo'ldi
- C Yo'riqnoma berilmagan lekin xodimlar topshiriqni samarali bajara oldi
- D Mijozlar mamnun bo'lsa ham, kompaniya reyting ololmadi

18

(**)4 ta o'quvchi kim eng ko'p masala yechish bo'yicha musobaqa o'ynashdi. Bunda:

- Jamshid eng ko'p masala yechmagan
 - Sanjar Azizdan kam masala yechgan
 - Hech kim Go'zaldan kam masala yechmagan
 - Har bir bola turli sondagi masalalar yechgan
- Quyidagilardan qaysi biri to'g'ri?

- A Jamshid 3-o'rinni egalladi B Jamshid Azizdan kam masala yechgan
C Sanjar Go'zaldan kam masala yechgan D Sanjar 3-o'rinni egallagan.

23

(***)Qatorda 5 kishi o'tiribdi. Ulardan 3 tasi o'g'il, 2 tasi esa qiz bola.

- Jasurdan bir tomonda hech kim yo'q va u Madinadan chap tomonda o'tiribdi.
 - Faqatgina Kamol qiz bola bilan yonma-yon o'tiribdi.
 - Madinadan ko'ra Nigora Azizga yaqinroq o'tiribdi.
- Nigoradan 2 ta o'rin uzoqda kim o'tiribdi?

- A Jasur B Aziz C Kamol D Madina

24

(**)Sinfdagi Aziz, Komil, Jasur, Sanjar va Baxtiyor turli oylarda lekin bitta yilda tug'ilishgan.

Sanjar, Komildan katta lekin Baxtiyordan kichkina. Jasur Azizdan katta lekin Sanjardan kichkina. Quyidagilardan qaysi biri bo'lishi mumkin?

- A Baxtiyor mayda tug'ilgan B Jasur dekabrda tug'ilgan
C Baxtiyor oktabrda tug'ilgan D Sanjar noyabrda tug'ilgan.

25

(**)Poygada A, B, C, D, E mashinalar ishtirok etdi

- Barcha mashinalar turli vaqtlarda kelishdi;
 - Faqat bitta mashina D dan oldin keldi;
 - E mashina B mashinadan keyin kelmadi;
 - C va A mashinalar bir-birlarini 3 marta quvib o'tishdi.
- Quyidagilardan qaysi biri bo'lishi mumkin emas?

- A A mashina birinchi keldi B B mashina D dan oldin keldi
C C mashina oxirida keldi D D mashina 3-keldi E E mashina 4-keldi

26

11. QUTBLARGA DOIR MASALALAR YECHISH

(*)Quyidagi rasmda berilgan ma'lumotlarga ko'ra, qaysi shaharlar A shaharning diagonal qarama-qarshisida joylashgan?

		B
C	A	
M	N	D

A C, M, N B C, N C M, D, B D C, B, D

9

(*)Madinaning mashinasi faqat to'g'ri chiziqda harakatlanishi va faqat shimol, janub, sharq yoki g'arb yo'nalishida yurishi mumkin. Uning mashinasi diagonal yo'nalishlarda harakatlana olmaydi. U uyidan mashinasida chiqib, 5 km sharqqa, keyin 90 darajaga o'ngga burilib, 3 km to'g'ri yurdi va oxirida 6 km janubga yurdi. Madina uyga qaytishi uchun eng kamida necha km shimolga yurishi kerak?

A 14 B 8 C 11 D 9

10

(*)Tanqid sayyorasida quyosh kunduz kuni shimoldan chiqib, kechga kelib janub tomonga botadi. Bir kuni kechga yaqin Azamat va Ismoil uchrashib qoldi.

Agar Azamatning soyasi Ismoilning ustiga tushgan bo'lsa, Ismoil qaysi tomonga qaragan edi?

A Shimol B Janub C G'arb D Sharq

11


(*)Nora dastlab sharqqa qaragan edi. U 90 daraja soat miliga teskari yo'nalishda burildi, so'ngra 150 daraja o'ngga, undan keyin 75 daraja chapga burilib, oxirida qarama-qarshi yo'nalishga o'girilib oldi. Endi u qaysi tomonga qarab turibdi?

A Shimoli-g'arb B Janub-g'arb C Shimoli-sharq D Janubi-sharq


12

11. QUTBLARGA DOIR MASALALAR YECHISH

(***) To'rtta do'st (Nodir, Sardor, Ozod va Jasur) kvadrat stolning atrofida rasmda ko'rsatilgan tartibda turibdi. Ularning stolidagi to'rtta qizil nuqtaga qirrasining uzunligi 1 cm va 3 cm bo'lgan kulrang kublar va qirrasining uzunligi 2 cm va 4 cm bo'lgan oq rangli kublar qandaydir tartibda joylashtirildi.



Shundan so'ng to'rtta do'st orasidan A va B bolalar o'zlariga ko'rinayotgan shaklni quyidagicha chizishdi.




Bu A va B bolalarning ismlari qanday bo'lishi mumkin.

- A A-Ozod, B-Jasur B A-Nodir, B-Jasur
C A-Jasur, B-Sardor D A-Nodir, B-Ozod

27

(***) Quyida berilgan N va M rasmda jismning mos ravishda sharqdan va yuqoridan qaralgandagi ko'rinishi berilgan. Bu shaklga janubdan qaralsa A, B, C va D rasmlarda berilgan qaysi ko'rinishni ko'rish mumkin?



28

12. TO‘PLAMLAR ORASIDAGI MOSLIKNI ANIQLASH(SYUJETLI MASALALAR)

Quyida ko‘rsatilganidek kutubxonada 7 ta alohida kitob javoni mavjud:

1	2	3	4	5	6	7
---	---	---	---	---	---	---

Ertalab har bir javonga bittadan turli fanlarga oid kitoblar joylashtirilgan edi (chapdan o‘ngga):

Astronomiya	Geografiya	Psixologiya	Tibbiyot	Falsafa	Arxitektura	Iqtisodiyot
1	2	3	4	5	6	7

Kechqurun xodimlar kitoblarni yana javonlarga joylashtirishdi. Birinchi bo‘lib kelgan uchta kitob xodim tomonidan quyidagicha joylashtirildi:

- Geografiya kitobi 6-javonga qo‘yildi.
- Arxitektura kitobi 2-javonga qo‘yildi.
- Astronomiya kitobi 7-javonga qo‘yildi.

Qolgan kitoblar esa quyidagi qoidaga ko‘ra joylashtirildi:

Har bir kitob ertalab turgan javondan kamida 2 ta javon uzoqlikda bo‘lgan javonga qo‘yilishi kerak.

Kechqurun iqtisodiyot kitobi qaysi javonga joylashtirilgan bo‘lishi mumkin?

A 1 B 3 C 4 D 5

16

(**)Uch nafar mehmonga turli taomlar taklif qilinmoqda.

Ovqatlar: Lag‘mon, Palov, Sho‘rva. Har bir ovqatdan faqat bittadan bor. Har bir mehmon bu ovqatlarni har xil darajada yaxshi ko‘radi: biri eng yoqtiradigani, biri o‘rtacha, biri esa eng kam yoqtiradigani.

Mehmonlar quyidagicha:

Ismlar	Eng ko‘p yoqtiradi	O‘rtacha yoqtiradi	Eng kam yoqtiradi
Zafar	Palov	Lag‘mon	Sho‘rva
Dilshod	Lag‘mon	Sho‘rva	Palov
Sardor	Palov	Sho‘rva	Lag‘mon

Bugun har bir mehmon navbat bilan bir dona taom tanladi.

Dilshodga sho‘rva to‘g‘ri keldi.

Mehmonlar qanday navbat bilan taom tanlashgan bo‘lishi mumkin?

A Dilshod, Zafar, Sardor B Zafar, Sardor, Dilshod
C Sardor, Zafar, Dilshod D Sardor, Dilshod, Zafar

17

13. ROST YOKI YOLG‘ON MULOHAZA

(**)Sudda jinoyatni sodir etganlikda Brovn, John va Smitlar gumonlanmoqda. Tergovchining “Jinoyatni kim sodir etdi?” savoliga ular quyidagicha javob berdilar:

Brovn: -“Buni men qilmadim, bu jinoyatni Smit sodir etdi”.

John: -“Smit aybdor emas, bu ishni Brovn qildi”.

Smit: -“Bu ishni men qilmadim, John ham aybdor emas”.

Agar gumondorlardan birining ikkala ma’lumoti ham rost, yana birining ikkala ma’lumoti ham yolg‘on, qolgan birining esa bir ma’lumoti yolg‘on, boshqa ma’lumoti esa rost bo‘lsa aslida kim aybdor ekanligini aniqlang.

A Brovn B John C Smit D Aniqlab bo‘lmaydi.

10

(**)Bahodir, Jamshid va Sanjarlar bankni kim o‘g‘irlaganiga guvoh bo‘ldilar va faqatgina o‘g‘rining qanday mashinada qochganini ko‘rdilar. Tergov jarayonida ular quyidagicha har xil ko‘rsatmalar berdi:

Bahodir: U mashina ko‘k, “Spark” edi.

Jamshid: U mashina qora, “Nexia” edi.

Sanjar: U mashina “Cobalt”, ammo uning rangi ko‘k emas.

Ma’lum bo‘lishicha ularning har biri faqatgina bittadan ma’lumotni xato aytgan. O‘g‘ri qanday rangdagi va qanday turdagi mashinada qochgan?

A Ko‘k rangli “Spark” B Qora rangli “Spark”
C Ko‘k rangli “Cobalt” D Ko‘k rangli “Nexia”

11

(**)Uch kishi - Anvar, Bahodir va Davron jinoyat qilishda gumon qilinmoqda. Ulardan faqat bittasi aybdor.

Tergovchi ularni so‘roqqa tutganida quyidagi javoblarni oldi:

Davron: Bahodir aybdor.

Bahodir: Men aybdor emasman.

Anvar: Men aybdor emasman.

Ma’lumki, uch kishidan faqat bir kishi rost gapirgan, boshqa ikki kishi esa yolg‘on gapirgan. Quyidagi mulohazalardan qaysi biri to‘g‘ri ekanligini aniqlang.

A Davron aybdor. B Bahodir aldayapti.
C Anvar aybdor emas. D Davron aldayapti.

12